

## MARHAMAT TUMANI QADAMJOLARI BILAN BOG'LIQ QARASHLAR VA ULARNING KELIB CHIQISHI

*Maxsutaliyev Jahongir Muhammadjon o'g'li*

*Namangan davlat universiteti*

*Tarix mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

[maxsutaliyevjahongir@namdu.uz](mailto:maxsutaliyevjahongir@namdu.uz)

(+ 998 97) 466-00-16

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Marhamat tumanidagi ziyoratgoh va qadamjolari bilan bog'liq qarashlar va ularning kelib chiqishi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Bu ziyoratgohlar o'zining g'ayritabiiy shifo xususiyatlari, shifobaxsh buloqlari, ularning nomlanishi va yashab o'tgan shayx va pirlarning karomatlariga bag'ishlangan. Bunday ziyoratgohlar o'zining diniy va madaniy ahamiyati bilan birga, turizm rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Har bir ziyoratgoh tarix va xalqimizning asriy qadriyatlarini, din va uning marosimlariga qarashlari haqida guvohlik beradi. Moddiy-madaniy me'rosimizning asrab qolinishi va ziyorat turizmini yangi bosqichga olib chiqish maqsad qilib olingan.

**Kalit so'zlar:** Bandi ota, Oqboosh ota, Alitepa, Go'zal ota, Bobo Xuroson ota, Xotin qum, Xo'ja Bosmon ota, Mirishkor ota.

## ВЗГЛЯДЫ, СВЯЗАННЫЕ С СТУПЕНЬКАМИ РАЙОНА МАРХАМАТА И ИХ ПРОИСХОЖДЕНИЕМ

*Махсуталиев Джахонгир Мухаммаджон ўғли*

*2 курс магистратуры по истории*

*Наманганский государственный университет*

[maxsutaliyevjahongir@namdu.uz](mailto:maxsutaliyevjahongir@namdu.uz)

(+ 998 97) 466-00-16

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о взглядах на святыни и священные места Мархаматского района и их происхождении. Эти святыни посвящены своим сверхъестественным целебным свойствам, целебным источникам, своим названиям и чудесам шейхов и пиров, живших там. Такие святыни, наряду со своим религиозным и культурным значением, также играют важную роль в развитии туризма. Каждая святыня свидетельствует об истории и многовековых ценностях нашего народа, его взглядах на религию и ее обряды. Цель состоит в сохранении нашего материального и культурного наследия и выводе паломнического туризма на новый уровень.

**Ключевые слова:** Банди ота, Акбаши ота, Алитепа, Гузал ота, Баба Хорасан ота, Хотин кум, Ходжа Босмон ота, Миришкор ота.

## VIEWS RELATED TO THE MARHAMAT DISTRICT STEPS AND THEIR ORIGIN

**Maxsutaliyev Jahongir son of Muhammadjon**

*Second-year Master's student in History,*

*Namangan State University*

[maxsutaliyevjahongir@namdu.uz](mailto:maxsutaliyevjahongir@namdu.uz)

(+ 998 97) 466-00-16

**Abstract:** *This article presents information about the views on the shrines and sacred sites of the Marhamat district and their origins. These shrines are dedicated to their supernatural healing properties, healing springs, their names, and the miracles of the sheikhs and pirs who lived there. Such shrines, along with their religious and cultural significance, also play an important role in the development of tourism. Each shrine bears witness to the history and centuries-old value of our people, their views on religion and its rituals. The goal is to preserve our material and cultural heritage and take pilgrimage tourism to a new level.*

**Keywords:** *Bandi ota, Oqbosh ota, Alitepa, Go'zal ota, Bobo Xuroson ota, Xotin qum, Xo'ja Bosmon ota, Mirishkor ota.*

## KIRISH

Marhamat tumanining o'zida turizm uchun xizmat qila oladigan 70 ga yaqin maskanlar mavjud. Ular sirasiga 10 dan ortiq ziyoratgoh, 30 dan ortiq shifobaxsh buloqlar, o'nlab tarixiy va zamonaviy maskanlar bor. Ular orasida Mingtepa arxeologiya yodgorligi eng mahobatlilik va ulug'vorligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Marhamat tumanida o'zining betakror tabiati, tabiiy landshafti, shifobaxsh havo oqimi, ayniqsa, boy tarixiy merosidan foydalanib, turizmning agro, eko, adabiyot, tarix, ziyoratgoh, qishloq yo'nalishlarini tashkil etish mumkin. Marhamat tumani "Alitepa", "Qorovultepa", "Oqto'nli ota", "Toshtepa", "Jung'ortepa", "Yig'loqtepa", "Davkarota", "Lo'mbitepa", "Oqboshtepa", "Temiratki mozor", "Boboxuroson ota", "Xotin qum", "Qo'ychi xalfa", "Xo'ja Bosmon ota", "Go'zal ota", "Mirishkor ota", "Ko'kto'nli ota", "Bandi ota", "Chashmai muborak", "To'ra bobo ziyoratgohi", "Mulla To'ychi ziyoratgohi", "Tabib ziyoratgohi" kabi qadimiy yodgorliklari, ziyoratgohlari, shifobaxsh buloqlarga boy hududligi bilan ajralib turadi[1]. Ushbu tarixiy joylar bir necha asrlardan buyon xalqimizning muqaddas maskanlari sifatida e'zozlanib kelinmoqda va ziyorat qilinmoqda. Maqolaning tahlil va natijalar qismida Marhamat tumanida joylashgan ko'proq ziyoratgoh va qadamjolari bilan bog'liq qarashlar va ularning kelib chiqishi haqida so'z yuritdik.

## MAVZUGA OID ADABIYOT TAHLILI

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda bir qator ilmiy, tarixiy hamda ommabop manbalar keng qo'llanildi. Ushbu manbalar Marhamat tumani hududidagi ziyoratgohlarning kelib chiqishi, rivojlanishi hamda ularning jamiyat hayotidagi o'rnini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Avvalo, Qodirjon Toshboltaevning "Marhamat: qishloqlarimiz hayotidan bahs" (2017) va "Marhamat tarixidan lavhalar" (2021) asarlari hudud tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif ushbu asarlarida Marhamat tumanining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tarixiy shakllanish jarayonlari va mahalliy an'analarini batafsil yoritadi. Ayniqsa, ziyoratgohlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixiy voqealar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinib, ularning mahalliy aholi ma'naviy hayotidagi o'rne ochib berilgan.

T. Xayrullayevning "O'zbekistonning tarixiy ziyoratgohlari" (2012) asari esa tadqiqot doirasini yanada kengaytirib, ziyoratgohlarni respublika miqyosida qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Muallif tomonidan ziyoratgohlarning tasnifi, ularning diniy-ma'naviy ahamiyati hamda jamiyatdagi o'rne tizimli ravishda yoritilgan. Ushbu yondashuv Marhamat tumanidagi ziyoratgohlarni umumiy milliy kontekstda baholash va ularning o'ziga xos jihatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, mazkur manbalar o'zaro uyg'un holda qo'llanilganda, hududdagi ziyoratgohlarni kompleks o'rganish imkonini yaratadi. Xususan, tarixiy manbalar orqali ziyoratgohlarning kelib chiqishi aniqlansa, arxeologik tadqiqotlar ularning moddiy asoslarini ochib beradi, diniy manbalar esa ularning ma'naviy mazmunini yoritadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Alitepa ziyoratgohi. Marhamat tumani Qorabog'ish qishlog'i Alitepa maxallasi xududida joylashgan. Ushbu ziyoratgoh shu yerlik Isaqjon xoji Xo'jaev tomonidan obdonlashtirilib, ziyoratchilar dam olishlari uchun imkoniyatlar yaratib qo'yilgan. Shuningdek, ushbu ziyoratgohda mo'jazzgina muzey tashkil etilgan bo'lib, u yerda Mingtepa tarixidan so'zlovchi noyob topilmalar joylashtirilgan.

Xo'ja bosmon ota ziyoratgohi (Quloq og'rig'i va qo'tir yarasi uchun shifo buloqlariga ega). Xo'ja Bosmon ota ziyoratgohi ko'p yillardan buyon muqaddas maskan sifatida e'zozlab keingan. Muqaddas ziyoratgohlardan biri Xo'ja Bosmon ota

ziyoratgohi ko'plab xislatlarga ega. Ziyoratgoh hozirgi Marhamat tumanining Xo'jaariq mahallasi hududida joylashgan. Ushbu ziyoratgoh Marhamat va Asaka tumanlaridagi etti otalarninigi biri dafn etilgan joy. Xo'ja Bosmon ota ziyoratgohida shifobaxsh buloqlari juda ko'p insonlar dardiga davo bo'lib kelmoqda. Xo'ja Bosmon ota ziyoratgohi bilan bog'liq bo'lgan sirli voqealarni Xo'jaariqlik keksalar ko'p eslashadi va bugungi kun yoshlariga ushbu ma'lumotlarni to'laligicha etkazib kelmoqdalar[2].

Oqbosh ota ziyortagohi. Oqbosh ota ziyoratgohi: Marhamat tumanining Oqbosh mahallasi hududida joylashgan. Ushbu ziyoratgoh qadimiy Lo'litepa arxeologik yodgorligi yaqinida va aholi tomonidan bir necha asr davomida qabristonga aylantirilgan tepalik yonida joylashgan. Bu joyda etti otaning biri bo'lgan Oqbosh otaning qabri shuningdek, Qo'qon xoni Xudoyorxonga xizmat qilgan Madumar dodhoh va uning avlodlarining ham qabrlari bor. Ziyoratgohga O'zbekistonning turli joylaridan shuningdek, Qirg'iziston Respublikasidan ham ziyoratchilar kelib turadilar.

Bandi ota ziyoratgohi. Bandi ota ziyoratgohini Saudiya Arabistonida yashovchilar ham biladi. Bandi ota ziyoratgohi Marhamat Qorabog'ish qishlog'ining Rohat mahallasi hududida joylashgan. Ushbu ziyortgoh ham uzoq tarixga ega, etti aka-uka aziz otalarning biri qo'nim topgan joydir. Mozorga qo'yilgan ulug zotning ismlari ulug'larimizning bizga etkazgan ma'lumotlariga qaraganda, og'zi qora ota, Bannam ota, Xo'ja Ma'ruf ota nomlari bilan atalib kelingan... Bu erga qadimda ot kasal bo'lsa, olib kelganlar va uch marotaba mozor atrofida aylantirganlar. Shu tarzda otlarni davolaganlar. "Bandimozor ota" ziyoratgohi nafaqat tumandagi, balki mamlakatimizdagi eng qadimgi ziyoratgohlardan biri hisoblanadi[3].

Go'zal ota ziyoratgohi (Ko'zi og'rigan bemorlar uchun shifo maskani). Go'zal ota ziyoratgohi: Marhamat tumani Qoraqo'rg'on qishlog'ining G'urrak mahallasi hududidagi qabristonda joylashgan bo'lib, xalq orasida tabarruk maskan sifatida e'tirof etiladi. Bu ziyoratgohga ham ko'plab joylardan ziyoratchilar tashrif byurishadi. Ko'z og'riq bilan kelgan bemorlar albatta bu erda shifo topib ketadilar.

Mirishkor ota ziyoratgohi. Mirishkor ota uzoq davrlardan beri xalq orasida safarga chiquvchilarning piri sifatida e'zozlanib kelinadi. Shu sababli Mirishkor ota

dafn etilgan ushbu maskan ziyoratgoh sifatida insonlarning ardoqli joyiga aylangan. Ushbu ziyoratgoh Marahmat tumani Mirishkor mahallasi xududida joylashgan. Ziyoratgoh tepasida ramziy qabr bor. Qabrning tagida mayin tuproq mavjud.

Bobo xuroson ota ziyoratgohi (yoki nopok odam kelsa to'xtab qoluvchi xislatli buloq). Bobo Xuroson ota ziyoratgohi Marhamat tumanining Boboxuroson mahallasi xudu dida joylashgan. Ushbu ziyoratgohning ikkinchi nomi "Chechak piri" deb ataladi. Teri kasaliklaridan chechak, suvchechak, sachratqi, uchuq kabi kasaliklariga shifo bo'luvchi bulog'i mavjud bo'lgan ushbu ziyoratgoh uzoq yillardan beri aholi orasida muqaddas maskan sifatida e'zozlanib kelingan[4].

Xotin qum shifobaxsh ziyoratgohi. Boboxuroson mahallasi hududida joylashgan yana bir aziz maskan Xotin qum tepaligi bor. Bu erni mahalliy aholi "Xotinqum" deb atashadi. Bu shifobaxsh qumdan juda ko'plab oyoq qo'llari og'riydigan odamlar shifo topadilar. Shifobaxsh qumga birinchi bo'lib ayol kishi tushganligi sabali bu joyning nomi "Xotin qum " deb atalib kelinadi.

Qo'ychi xalfa ziyoratgohi. Qorabog'ish Qo'ychi xalfa ziyoratgohi: Marhamat tumani qishlog'ining Chilon mahallasida joylashgan. Bu ziyoratgoh XIX asrda yashagan, asli kasbi cho'pon, avliyo xislatlariga ega, o'z davrning etuk kishisi Bekmurod polvon, xalq orasida Qo'ychi xalfa nomi bilan mashhur bo'lgan inson qo' nim topgan maskan. Aholi orasida Qo'ychi xalfa karomatlari to'g'risida turli rivoyatlar saqlanib qolgan. Hozirgi kunda ushbu ziyoratgoh ham davlat muhofazasiga olingan bo'lib, mahalliy saxovatpesha insonlar tomonidan obodonlashtirilgan. Ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratilib qo'yilgan[5].

## XULOSA

Xalqimiz qadimdan ushbu maskanlarni ziyorat qiladilar va u yerdagi shifobaxsh buloq suvlari, tuproqlaridan davolanish maqsadida foydalanib kelmoqdalar. Garchi ushbu buloqlarning shifobaxshligi ilmiy asoslanmagan bo'lsada, amalda turli dardlarga shifo bo'layotganiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, Xo'ja Bosmon ota ziyoratgohida qo'tir yarasi, quloq og'rig'iga shifo bo'luvchi buloqlar, Oqbosh ota ziyoratgohida toshma yaralarga, sochiga oq tushganlarga, oshqozon-ichak kasalliklariga shifo bo'luvchi buloqlar, Bobo Xuroson ota ziyoratgohida esa, suvchechak, sachratqi, toshma yaralariga shifo bo'luvchi buloqlar, Temiretki mozor

tepaligida esa temiratki kasalligiga shifo bo'luvchi tuproq, Xotin qum ziyoratgohida esa, qo'l, oyoq, bel og'riqlarga shifo bo'luvchi qumning mavjudligi bunga misoldir. Bu shifobaxsh maskanlardan respublikamizning turli viloyatlaridan, shuningdek, qo'shni Qirg'iziston, Tojikiston, Rossiya davlatlaridan ham bemorlar kelib shifo topayotganligi olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan. Har bir ziyoratgoh tarix va xalqimizning asriy qadriyatlari, din va uning marosimlariga qarashlari haqida guvohlik beradi. Moddiy-madaniy me'roslarimizning asrab qolinishi va ziyorat turizmini yangi bosqichga olib chiqish maqsad qilib olingan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Toshboltayev Q. Marhamat: qishloqlarimiz hayotidan bahs. Andijon: Andijon nashriyot - matbaa OAJ. – 2017. – 200 b.
2. Mahmudov O. Ko'hna va boqiy Mingtepa. Qadim Farg'ona tarixidan. - Toshkent: Zamin nashr, 2018. - 372 b.
3. Mingtepa ilmiy - ommabop to'plam. nashriyoti, 2019. – 288 b. Namangan: Namangan
4. Toshboltayev Q. Tarixiy ommabop nashr. Marhamat tarixidan lavxalar. - Andijon nashriyoti - matbaa MCHJ, 2021. – 272 b.
5. Xusanova Sh. Mingtepa ziyoratgohlari va qadamjolari. Namangan: Arjumand media nashriyoti. - 2020. – 72 b.
6. „Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi 846-sonli qarori“.
7. Xayrullayev T. “ O'zbekistonning tarixiy ziyoratgohlari “./ “Ilm ziyo” nashriyoti” Toshkent: 2012-yil.
8. Матбабаев Б. Қадимги Фарғонада илк давлатчилик илдизлари // O'zbekiston tarixi. – 2002. – №1.
9. Матбобоев Б., Зокиров З. Қадимий Андижон / Фарғона водийсининг қадимий шаҳарлари. – Тошкент, 2008.
10. Матбобоев Б.Х. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти (V-VIII асрлар археологик манбаларининг тарихий таҳлили асосида). Дисс... тарих фнлари доктори. Самарқанд, 2009. 141 б.
11. Bo'riyev O., Xo'jayorov A. Temuriylar davrida Turkiston ziyoratgohlari. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2022. – 250 b.
12. Эралиев Б., Останақулов И., Абдулаҳатов Н. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва қадамжолари тарихи / Андижон ва Наманган шаҳарлари. – Тошкент: Turon Zamin Ziyu, 2014. – 338 б.
13. Andijon shahrida olib borilgan arxeologik yodgorliklar // Matboboev B.X. Andijon tarixi: qadimgi davrlardan XX-asr boshlarigacha. – Toshkent : Sharq, 2014. - B. 34-103.
14. Mashrabov, Z. Matboboev, B. Farg'ona vodiysi tarixiga chizgilar. Andijon. - 2022. – B. 254.
15. Farg'ona vodiysi aholisini shakllanish tarixi // U. Abdullaev, G. Valixonova. Farg'ona